

INTERNATIONAL CONFERENCE
“Global Horizons in Philology and Pedagogy: Experiences of Turkic Nations”
September 25, 2025

PSIXOLOGIYA TA'LIM YO'NALISHI TALABALARINING KASB TANLASH
MOTIVLARINI O'RGANISH

Fayzullayeva Farida Yusufjon qizi

Mirzo Ulug'bek nomli O'zbekiston Milliy Universiteti

Psixologiya kafedrası tayanch doktoranti

Ilmiy rahbar psixologiya fanlari doktori

Prof. Arzikulov Dilshod Ne'matovich

KIRISH. Bugungi shiddat bilan o'tayotgan, har tomonlama rivojlangan murakkab davrda o'quvchi yoshlarning kasb tanlovini amalga oshirishda zamon bilan hamnafas ekanliklarini yaqqol guvohi bo'lishimiz mumkin. Zamon rivojlangani sari fan sohalari tarmoqlarida ham rivojlanish, talab ortgani sari yangidan-yangi ma'lumotlar kashf etilib sohalar tarmoqlari ham ortib bormoqda. Fanlar orasida psixologiya ham o'z ahamiyatiga ega bo'lib, hozirda shiddat bilan rivojlanib borayotgan, qiziquvchilar soni ortib, qamrovi borgan sari kengayib borayotgan fanlar sohalar sirasiga kiradi. Agar so'nggi yillardagi statistic ma'lumotlarga asoslanadigan bo'lsak, psixologiya ko'plab mamlakatlarda eng mashhur ta'lim yo'nalishiga aylanib ulgurgan bo'lib, AQShda psixologiya fakultetlari ko'plab talaba yoshlar tomonidan tanlanadigan yo'nalishlardan biri hisoblanadi. 2020-yil holatiga ko'ra AQShda psixologiya bo'yicha bakalavr darajasini olish uchun o'qiyotgan talabalar soni 120 000 dar ortiqni tashkil etganini o'zi ham fanga bo'lgan talabni yuqoriligini ko'rsatadi. O'tkazilgan tadqiqotlar natijasida ushbu talaba yoshlarning bu sohani tanlashlariga asosiy sabab sifatida kasbga qiziqish, shaxsiy rivojlanish, insonlarning ruhiy salomatligini yaxshilashga bo'lgan qiziqishlar asosiy sabab sifatida keltirilgan[1]

ma'lumotlardan ma'lum. 2021-yil holatiga ko'ra Rossiyada mavjud psixologiya fakultetlari mavjud universitetlarda psixologiya yo'nalishi bo'yicha tehsil olayotgan talaba yoshlar soni 50 000 dan ortiq ekanligi aniqlangan. Talabalar o'rtasida o'tkazilgan so'rovnoma natijalariga ko'ra talabalarning ushbu sohani tanlashlari sababi sifatida kasbga bo'lgan shaxsiy qiziqish va ijtimoiy xizmatlarga bo'lgan ehtiyoj, ijtimoiy muammolarni hal qilishga bo'lgan qiziqish asosiy sabablar sifatida ko'rsatib o'tilgan. O'zbekistonda ham psixologiya faniga bo'lgan qiziqishlar, psixologlarga bo'lgan talablar ancha ortganligi ma'lum. Mamlakatimizda mavjud aksariyat oliy ta'lim muassasalarida psixologiya fakultetlari va kafedralari mavjud bo'lib, bugungi kunda ularning soni borgan sari ortib bormoqda. Statistika ma'lumotlarga ko'ra 2021-yil holatiga ko'ra psixologiya ta'lim yo'nalishida tahsil olayotgan talabalar soni 10 000 dan oshgan. O'tkazilgan so'rovnomalar asosida esa kasb tanlashdagi asosiy motiv sifatida shaxsiy qiziqishlar va oilaviy ta'sirlar ko'rsatib o'tilgan.

Sohaga bo'lgan qiziqish, talabning ko'pligi bois ta'limning sirtqi ta'lim, masofali o'qitish, oliy ta'limdan keying ta'lim shakllari kabi ta'lim shakllari ham mavjud bo'lib, oliy ta'limdan keying ta'lim bosqichlarida ta'lim olish orqali sohani yanada chuqurroq egallash imkoni mavjud bo'ladi.

Psixologiyani o'rganishni o'zi yoshlarda hissiy, ijtimoiy va kognitiv rivojlanishni tushunishga yordam beradi. Bu o'z navbatida, yoshlarning qaror qabul qilish, munosabatlar va o'rganish jarayonlarini yaxshilashga qo'l keladi. Zamonaviy psixologik usullar va strategiyalar yoshlarning mental salomatligini saqlash, o'zini anglash va muvaffaqiyatga erishishlariga yordam beradi[2,3]

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODOLOGIYA: Mavzuni o'rganish davomida o'quvchi yoshlarning kasb tanlovini amalga oshirishlarida motivlarni o'rganishga doir bo'lgan ilmiy adabiyotlar, jurnallar, va o'quv-qollanmalar o'rganib chiqildi. Jumladan, yosh davrlariga xos o'zgarishlar, kasb tanlash bilan bog'liq motivlar (E.G'oziyev; L.I.Bojovich, A.V.Petrovskiy, D.E.Super), shaxsni kasbiy faoliyat sub'ekti sifatida shakllantirish muammosini hal qilish (V.A.Belikov, A.Ya. Nain); malaka oshirish masalasini o'rganish, (E.F.Zer, T.V.Kudryavtsev, O.Lesher, A.Maslou, E.M.Pavlyutenkov) kasbiy o'zini-o'zi belgilash motivlari va omillari (E.P.Ilyin, P.A.Shavin) kabi kasbiy motivlar kabi mavzuga doir adabiyotlar, jurnallar o'rganildi.

Tadqiqot davomida mavzuni chuqurroq yoritishda aniq ma'lumotlarga asoslanishni lozim topgan holda mavzuga mos ravishda metodika va so'rovnomalar sinaluvchi Muammoni o'rganish yuzasidan “Kasb tanlash motivlarini aniqlash”, “Kasbiy kamolotga ta'sir ko'rsatuvchi omillar”, Kasbiy faoliyatni amalga oshirish mumkin bo'lgan kasbiy faoliyat obyektlari”, (N.A.Mirashurova so'rovnomalar), so'rovnommalari tanlab olindi va sinaluvchilarga taqdim etildi. O'tkazilgan metodika va so'rovnomalar natijalari tadqiqotdan oldin qo'yilgan nazariy savollar yechimini topishga yordam beradi.

Muhokama va natijalar: Mavzu doirasida bugungi kunda kasb tanlovini amalga oshirish bosqichida bo'lgan yoshlar va psixologiya ta'lim yo'nalishida tahsil olayotgan talaba yoshlarning aynan psixolog kasbini tanlashlari uchun sabab bo'lgan omillar o'rganildi. Tadqiqotda O'zbekiston Milliy Universitetida tahsil olayotgan 110 talaba yoshlar sinaluvchilar sifatida ishtirok etdilar.

Tadqiqot o'z oldiga ko'p masalalarni qo'yadi:

- talabalarning mazkur sohani tanlashlari uchun asosiy sabab;
- kasbiy tanlovni amalga oshirishda oila a'zolarining roli;
- mazkur kasb tanlovi hozirgi kunda yigitlar tomonidan amalga oshirilmoqdami yoki qizlar tomonida;
- qizlar tomonidan psixolog kasbini tanlashga sabab bo'luvchi asosiy omillar;
- yigitlar tomonidan psixolog kasbini tanlashga sabab bo'luvchi asosiy omillarni o'rganish;
- psixolog sifatida faoliyat yuritishga bo'lgan qiziqishlarning paydo bo'lishiga sabab bo'luvchi asosiy omillar;
- psixolog kasbini tanlash uchun sabab bo'luvchi asosiy motivlarni o'rganish;

Quyida psixologiya ta'lim yo'nalishida tahsil olayotgan talaba yoshlarning psixolog kasbini tanlashlarida yigit va qizlar orasida asosiy motivlarni o'rganish natijalari tahlilini ko'rishimiz mumkin.

Shkalalar	jinsi	N	o'rtacha rang	Z	R
Insonlar bilan muloqot qilishni yoqtirish	yigit	17	17,38	-0,602	0,549
	qiz	93	93,76		
Vaziyat taqozosi bilan	yigit	17	15,88	-0,123	0,904
	qiz	93	90,15		
Shaxsiy psixologik xizmat markazlari	yigit	17	,01	-1,124	0,261
	qiz	93	51,24		
Yashash hududi	yigit	17	46,39	-2,624	0,009**
	qiz	93	62,03		
Psixologning tashqi ko'rinishi: imiji kiyinish uslubini yoqtirish	yigit	17	56,11	-0,517	0,605
	qiz	93	53,01		
Psixolog faoliyatini	yigit	17	54,67	-0,056	

muvofiqlashtiruvchi uyushmalar haqida bilish	qiz	93	54,34		0,956
--	-----	----	-------	--	-------

Tadqiqot uchun tanlangan so'rovnoma natijalarini tahlil qilib, olingan natijalar Tadqiqot natijalaridan ma'lum bo'ladi-ki, yigitlar va qizlar o'rtasida psixolog kasbini tanlashlarida yashash hududi bilan bog'liq bo'lgan motivda jins tafovuti kuzatilina. Ya'ni, qizlar kasb tanlash jarayonida oliy o'quv yurtining yashasg joylariga nisbatan yaqinligi qizlar uchun muhim ahamiyatga ega. Qizlar kasb tanlovini amalga oshirayotganda oliy o'quv yurtini yashash joylariga nisbatan yaqinligi ko'proq inobatga oladilar. Chunki ularda o'z yaqinlaridagi insonlarga nisbatan yordam berish istagi kuchli. Qizlarning ta'lim muassasasiga yaqin joyda yashashlari, uyda ta'lim jarayoni uchun barcha shart-sharoitlarning mavjudligi ta'lim olish jarayonini yengillashtiradi.

Yigitlarda ta'lim muassasasining joylashuvi u qadar muhim ahamiyatga ega emas. Chunki yigitlar yoshlik davrlaridan boshlab mustaqil bo'lishga intiladilar. Kasbga nisbatan talab turli yashash joylarida turlicha degan tushuncha yigitlarda mavjud bo'lib, ular uchun yashash joyi emas, ko'pincha faoliyatga nisbatan talab bo'lgan joy muhim ahamiyatga egadir. Yigitlarda kasb tanlashda daromadga nisbatan bo'lgan motivning ham yuqori ekanligi e'tirof etiladi.

Kishilar bilan muloqotga kirishishga nisbatan motivga nisbatan farq turli bosqich talabalarida turlicha ko'rinishda ekanligini ham guvohi bo'lishimiz mumkin. Muloqotga nisbata bo'lgan qiziqishlarning yuqori ekanligi bilan ham qizla ustundurlar yigitlarga nisbatan yuqoriroq. Agar muloqotga nisbatan motivlarni ta'lim bosqichi kesimida o'rganadigan bo'lsak quyi bosqichdagi talabalarda bu ko'rsatkich nisbatan past ekanligini guvohi bo'lishimiz mumkin. Bu holatni quyi ko'rsatkichga ega ekanligini ta'limning dastlabki bosqichlarida talabalarning o'quv jarayonlariga moslashuvlari bilan ifoda etiladi. Yuqori bosqich talabalarida bu ko'rsatkichning yuqoriligi yillar davomida talabalarning oliy o'quv yurtiga nisbatan moslashuvning mavjudligi, o'quv predmetlarining ko'p qismini o'zlashtirishlari bilan ifodalanadi. Amaliyot va o'qish davomida to'plangan ma'lumotlar, olingan bilimlar natijasida talabalarda o'z kasblarida faoliyat yuritishga nisbatan ishonch ortadi. Buning natijasida ularda shaxslar bilan muloqotga kirishish va ularning muammolarini o'rganish hamda bartaraf qilishga nisbatan qiziqish ortadi. Natijada ularda o'zgalalar bilan muloqotga kirishish istagi ortishini guvohi bo'lishimiz mumkin.

Qizlar o'rtasida psixolog kasbini tanlashda o'quv muassasasida faoliyat yurutuvchi psixologning imidji ham muhim ahamiyat kasb etadi.

Xulosa. XXI asr ilm-fan va boshqa ko'plab fan tarmoqlari shiddat bilan rivojlanib borayotgan davr. Qiziqish va o'rganishlar natijasida fanlarning yangidan-yangi yo'nalishlari, sohalarida paydo bo'lib bormoqda. Shu o'rinda ularga bo'lgan talabning yuqoriligiyana fan tarmoqlarini rivojlanishini taqazzo etadi. Psixologiya fani ham bugungi kunda eng talabgir va zaruriy fanlar sirasiga kirib bormoqda. Bugungi kunda mamlakatimizning deyarli barcha oliy ta'lim muassasalarida psixologiya kafedralari mavjud bo'lib fan tarmoqlari bo'yicha yetuk mutaxassislar talaba yoshlarga o'z bilimlarini berib, yetuk kadrlarni yetishtirish bilan shug'ullanmoqdalar. O'quvchi va talabalarning o'z tanlangan sohalarida yetuk kadr bo'lib yetishishlarida ta'lim muassasasida faoliyat yurutuvchi o'qituvchilar faoliyati bilan chambarchas bog'liq. Chunki talaba yoshlar o'qituvchilar faoliyatini kuzatgan holatda, ularga havas qilgan holatda kasbga nisbatan qiziqish bildiradilar.

INTERNATIONAL CONFERENCE
“Global Horizons in Philology and Pedagogy: Experiences of Turkic Nations”
September 25, 2025

Foydalanilgan adabiyotlar

1. E.G'oziyev Umumiy psixologiya Toshkent.
2. E.G'oziyev.Ontogenez psixologiyasi. Toshkent. “Noshir”
3. S.X.Asilova. “Talabalarda o'quv motivlarini rivojlantirishda psixologik yordam”. Yoshlar va tadbirkorlikni qo'llab-quvvatlash-mamlakatimizda amalga oshirilayotgan islohotlarning muhim omili.
4. N.Z.Bayerbekovna “Yoshlar orasida hozirgi kundagi psixologiyaning o'rni”. Yosh olimlar ilmiy-amaliy konferensiyasi.
5. [https//scholar.kokanduni.uz](https://scholar.kokanduni.uz)